

“ILMIY TAFAKKUR VA ZAMONAVIY TADQIQOTLAR: MUAMMOLAR, YECHIMLAR VA ISTIQBOLLAR” MAVZUSIDAGI RESPUBLIKA ILMIY KONFERENSIYASI
Qabul qilindi: 9-noyabr 2026-yil • Ma’qullandi: 11-noyabr 2026-yil • Nashr qilindi: 15-noyabr 2026-yil

NAVOIY LIRIKASIDA XALQ O‘GITLARI VA NAQLLARINING O‘RNI

Maxmudova Jasmina Muxtor qizi

BuxDPI 2-bosqich magistranti

E-mail: jasminmakhmudova94@gmail.com

Annotatsiya. Maqolada Alisher Navoiy lirikasida, xususan «G‘aroyib us-sig‘ar» devonida xalq maqollari, hikmatli so‘zlari va xalqona ifoda vositalarining badiiy-poetik vazifasi tahlil etiladi. Shoir asarlaridan mingdan ortiq maqol va hikmatli ibora aniqlangani, ularning ayrimi aynan, ayrimi mazmun yoki shakl jihatidan o‘zgartirilgan holda qo‘llangani ko‘rsatiladi. Turkiy maqollar bilan birga fors-tojik va arab manbalaridan olingan paremiyalarning she’riy matnga singdirilishi, maqol mazmunining misralarga «eritib yuborilishi», so‘z o‘yini orqali ma’no qatlamlari boyitilishi misollar asosida yoritiladi. Navoiy ijodida maqol bilan hikmatli so‘z o‘rtasidagi chegaraning shartliligi, shoir yaratgan hikmatlarning keyinchalik xalq maqollariga aylangani asoslanadi.

Kalit so‘zlar: Alisher Navoiy, «G‘aroyib us-sig‘ar», folklorizm, maqol, hikmatli so‘z, masal, tajnis, badiiy singdirish, fors-tojik maqollari.

Аннотация. В статье анализируются художественно-поэтическая функция народных пословиц, мудрых изречений и разговорных выразительных средств в лирике Алишера Навои, прежде всего в диване «Гараиб ус-сигар». Показано, что в произведениях поэта выявлено более тысячи пословиц и афоризмов, использованных дословно либо с изменением формы или содержания. Наряду с тюркскими пословицами рассматривается органичное включение в поэтический текст персидско-таджикского и арабского паремиологического материала, «растворение» смысла пословицы в стихотворных строках и обогащение смысла посредством игры слов. Обосновывается условность границы между пословицей и афоризмом, а также то, что многие изречения самого Навои впоследствии стали народными пословицами.

Ключевые слова: Алишер Навои, «Гараиб ус-сигар», фольклоризм, пословица, афоризм, масал, паремиология, игра слов, поэтическое усвоение, персидско-таджикские пословицы.

Abstract. The article examines the artistic and poetic function of folk proverbs, aphorisms and vernacular expressive devices in Alisher Navoiy’s lyric poetry, with particular attention to the divan Ghara’ib us-sighar. It shows that over a thousand proverbs and sayings occur in the poet’s works, used verbatim, or modified in form or meaning. Alongside Turkic proverbs, the study demonstrates how Persian-Tajik and Arabic paremiological material is assimilated into the poetic text. It also covers the dissolution of a proverb’s semantics into verse lines and the enrichment of meaning through wordplay (tajnis, iham). The study argues that the boundary between proverb and aphorism is conventional, and that many of Navoiy’s own maxims later entered popular usage as proverbs.

Keywords: Alisher Navoiy, Ghara’ib us-sighar, folklorism, proverb, aphorism, masal, paremiology, wordplay, poetic assimilation, Persian-Tajik proverbs.

Kirish

Alisher Navoiy xalq tili, uning boyliklari va go‘zalliklari to‘laqonli aks etgan og‘zaki ijod tili hamda uning an’analaridan kengroq foydalanadi. Bu holat Navoiyning so‘z boyligiga, iboralar va gap qurilishi xususiyatlariga, shuningdek, xalq maqollari hamda ifodali so‘zlaridan foydalanganiga bog‘liqdir. Biz Navoiy asarlarini o‘rganar ekanmiz, mingdan ortiq maqol va donolik bilan aytilgan so‘zlarni jamladik. Ular Navoiyning she’riy hamda nasriy, badiiy, tarixiy va ilmiy asarlari hamda maktublarida uchraydi. Bu birikmalar mazmun va mavzu jihatidan rang-barang bo‘lib, “xalq donishmandligi”ning g‘oyaviy-estetik mohiyatini, til go‘zalligini o‘zida mujassamlashtiradi. Navoiy xalq maqollarini to‘g‘ridan-to‘g‘ri keltiradi yoki ularga ayrim o‘zgartirishlar kiritadi. Bu o‘zgarishlar ba’zan mazmun yoki shaklga, ayrim hollarda esa har ikkala jihatga taalluqlidir (shaklga oid o‘zgarishlar she’riy asarning poetik talablariga ko‘ra, ko‘pincha aynan she’riy asarlarda uchraydi). Navoiy ba’zi maqollarning bir emas, bir nechta ko‘rinishidan foydalangan. U turkiy tillardagi maqollar bilan bir qatorda fors-tojik va arab tillariga oid maqollarni ham

ishlatgan. Ehtimol, ba’zilarini tarjima qilib olgan bo‘lishi mumkin. Shu bilan birga, Navoiy xalq maqollari ohangida ko‘plab donolik bilan aytilgan hikmatli iboralarni ham yaratgan. Ular keyinchalik xalq orasida keng tarqalib, maqollar qatoridan o‘rin olgan. Shuning uchun, ko‘plab folklorshunoslar ta’kidlaganidek, maqol bilan hikmatli so‘zni doim qat’iy chegara bilan ajratib bo‘lmaydi.

Muhokama va natijalar

Navoiy asarlarida uchraydigan ayrim maqollar hozirgi kunda ham deyarli o‘zgarmagan holda ishlatilib kelmoqda. Masalan, “Mahbub ul-qulub” asarida keltirilgan: “Suning mazasi muz bilan, oshning ta’mi tuz bila” maqoli (bu maqol “Devonu lug‘otit turk”da ham uchraydi), “O‘t ishi qovurmoq va yel ishi sovurmoq”, “Sihat tilasang ko‘p yema, izzat tilasang ko‘p dema”, “Ko‘p degan, ko‘p yengilur, ko‘p yegan ko‘p yiqilur”, “Vafosizda hayo yo‘q, hayosizda vafo yo‘q”, “Tilga ixtiyorsiz, elga e’tiborsiz”, “Aytur so‘zni ayt, aytmas so‘zdan qayt”, “Oz-oz o‘rganib dono bo‘lur, qatra-qatra yig‘ilib daryo bo‘lur” kabi maqollar shular jumlasidandir. Shuningdek:



Ishq istar emish seni adam misri sari,
Borg‘ilki, erur el tilagan yerda aziz.

(“G‘aroyib us-sig‘ar”, 755-bet)

baytida keltirilgan “El tilagan yerda aziz”,

“Yetti jon og‘zimgakim chiqmas uyidin ul hur,
Chiqmag‘on jonga umid – ushbu masaldur mashhur”[1].

baytidagi “Chiqmag‘on jonga umid”,

“Xizrvash xay birla chun husnung samandin surgasen,
Yuz Skandarni sug‘a eltib, susiz kelturgasen”[2]

baytidagi “Sug‘a eltib susuz kelturgasen” maqoli,

“Xo‘blar tiyg‘i yetishmasdin burun bu zor o‘lar,
Chin emishkin, bo‘lsa ko‘p qassob, qo‘y murdor o‘lar”[3]

[1] Alisher Navoiy. Xazoyin ul-maoniy: Navodir ush-shabob. MAT. 20 jildlik. – Toshkent: Fan, 1989. T. 4. – B. 105.

[2] Alisher Navoiy. Xazoyin ul-maoniy: Badoye ul-vasat. MAT. 20 jildlik. – Toshkent: Fan, 1990. T. 5. – B. 328.
[3] Alisher Navoiy. Xazoyin ul-maoniy: Favoyid ul-kibar. MAT. 20 jildlik. – Toshkent: Fan, 1990. T. 6. – B. 125.

baytidagi “bo‘lsa ko‘p qassob, qo‘y murdor o‘lar” (“Qo‘ychivon ko‘p bo‘lsa, qo‘y harom o‘larkan”) maqoli va yana ko‘pgina maqollar, ayrim elementlarini hisobga olmaganda, haligacha amalda saqlanib kelmoqda.

Navoiy yuqorida ta’kidlaganimizdek, maqollarni aynan yoki misralarning badiiy talabi bilan ba’zi o‘zgarishlar bilan ishlatadi yoki maqol mazmunini misralarga singdiradi (u ham zamondoshlari va undan keyingi mualliflar kabi maqol o‘rniga “masal” atamasidan foydalanadi). Bir nechta misollar keltiramiz:

Mutrib bila ne ko‘ngli ochilsun Navoiyning,
Kim men firoqdin desam, ul der yiroqdin.

(“G‘aroyib us-sig‘ar”, 489-bet)

Bu baytda “Men firoqdin desam, u yiroqdin” (shuningdek, “men bog‘dan kelsam, u tog‘dan keladi” kabi variantlari ham mavjud) degan misra lirik qahramonning og‘ir ruhiy kechinmalarini ifodalashga mos kelgan. Shoir “yiroq” so‘zida so‘z o‘yini yaratib, bu yerda nafaqat “uzoq” ma’nosini, balki “Iroq” kuyini ham nazarda tutadi.

Egma qoshin ko‘rguzib aylar manga man’i junun,
Yangi oy birla kerak sog‘ etsa bu devonani.

(“G‘aroyib us-sig‘ar”, 619-bet)

baytiga “Devonadan oy boshi so‘rama” maqolini,

“Bo‘ldi ayog‘in qaro ziynatu peroyadin,
O‘ylaki bo‘lgoy qaro sham’ tubi soyadin”[4]

baytiga “Chiroq tubi qorong‘u” maqolini (bu maqolni Mavlono Lutfiy ham o‘z g‘azalida qo‘llagan),

Ishqing o‘tinki yoshurdum el aro yoydi raqib,
Kim isitmani nihon tutsa qilur marg ayon.

(“G‘aroyib us-sig‘ar”, 492-bet)

baytiga “Kasalini yashirsang, isitmasi oshkor qiladi” maqolini,

Zulfi vaslin istasam ruhsori mehr afruzidin,
Yo‘q ajab chun yil kelishi bilgurur navro‘zidin.

[4]Alisher Navoiy. Xazoyin ul-maoniy: Navodir ush-shabob. MAT. 20 jildlik. – Toshkent: Fan, 1989. T. 4. – B. 353.

(“G‘aroyib us-sig‘ar”, 696-bet)

baytiga “Yil kelishi navro‘zidan ma’lum” maqolini,

May batining ko‘r nishot afzolig‘in huzn ahlig‘a,

Kim kuyar o‘lu qurug‘ chun naysitong‘a tushdi o‘t.

(“G‘aroyib us-sig‘ar”, 103-bet)

baytiga “To‘qayga o‘t tushsa, ho‘l-quruq barobar yonadi” maqolini,

“To‘qib may muhtasib, men yig‘ladim lekin ul usrukka:

Su keltirmoq hamonu ko‘za sindirmoq hamon ermish”[5]

baytiga “Suv keltirgan xoru ko‘za sindirgan aziz” maqolini,

“Borib ahbobu men g‘aflat asiri bo‘lmog‘um,

O‘yladurkim it uyub qoldiyu ko‘chti korvon”[6]

baytiga “It huradi, karvon o‘tadi” maqolini singdirib yuboradi.

Alisher Navoiy faqat o‘zbek (yoki umumiy qilib aytganda, “turkiy”) maqollar bilangina kifoyalanib qolmagan, balki fors-tojik va arab tillaridagi maqollardan ham keng miqyosda foydalangan. U “Devoni Foniy”, “Sittai zaruriya”, “Fusuli arba’a” kabi asarlarida fors-tojik (ba’zan arab) tilidagi ko‘plab maqol va xalq iboralarini qo‘llagan. Shuningdek, ba’zida o‘zbek tilida yozilgan asarlarida ham ularni aynan yoki ko‘proq moslashtirilgan holatda ishlatgan.

Quyida bir necha misollarni keltirib o‘tamiz:

Zi dil bushud xiradu sabru hushu ishqat mond,

Chunon, ki mond ba manzil zi karvon otash.

(Ko‘chgan karvon manzilida o‘t qolganidek, dilimdan aql, sabr va hush yo‘qoldi-yu ishqing qoldi)[7].

Ba azmi tavba naboyad zi shayxam istimdod,

Va kori xayr chi hojat, ki istihora kunam.

[5]Alisher Navoiy. Xazoyin ul-maoniy: Badoye ul-vasat. MAT. 20 jildlik. – Toshkent: Fan, 1990. T. 5. – B. 268.
[6]Alisher Navoiy. Xazoyim ul-maoniy. Favoyid ul-kibar. MAT. 20 jildlik. – Toshkent: Fan,1990. T.6. – B 496.
[7] Asarlar, 5-tom, I kitob. – Toshkent: Fan, 1990. - B. 460-461.

(Men tavba yo‘liga jadal yo‘l olish uchun shayxdan yordam so‘rashim shart emas – xayrli ish uchun shovqin ko‘tarishning nima keragi bor?)[8]. Ushbu baytdagi maqol Gulxaniyning “Zarbulmasal”ida ham keltirilganiga guvoh bo‘lamiz.

Bo dahoni xushku chashmi tar qanoat kun az on-ki,

Harki, qone’ shud ba xushku tar shahi bahri bar ast.

(Qurigan lab bilan nam ko‘zga rozi bo‘l, chunki ho‘l va quruqqa shukr qilgan kishi – dengiz-u quruqlikning hukmdoridir)[9].

Halol gasht va chashmi tu xuni man, garchi

Hanuz az dahanat bo‘yi shir meoyad.

(Ey nozikhilqat, og‘zingdan hali ona sutining hidi kelib turgan bo‘lsa ham, ko‘zing bilan menga ozor yetkazishing o‘rinlidir)[10].

...Ba ta’rifi mazkur in shaxsro,

Tavon guft kamxarji bolonishin[11].

(Bu shaxs tavsifida ko‘p xarajat qilmasdan, uni yuqori darajaga olib chiqish mumkin, deyish joiz). Navoiy-Foniy shuningdek, “Murg‘oni havoyu mohiyoni daryo”, “Shuturi mast” kabi xalq iboralarini ham she’riyati mazmuniga mahorat bilan singdirgan. Bizningcha, Alisher Navoiy ba’zida boshqa tildagi maqolning mazmunidan foydalanib, uni o‘zbek tilidagi she’riy ifodaga mahorat bilan uyg‘unlashtirgan. Masalan, o‘zbek tilidagi:

“Or etar pashminadin ablah tilab zar rishtani,

Kim eshak halvoni andoqkim somon ko‘rmas laziz.

(“G‘aroyib us-sig‘ar”, 147-bet)

baytiga “Har chi donad qadri halvoyu nabot, yak to‘rva kahu kunji ravot” fors-tojik tilidagi maqolini asos qilib olgan.

Navoiyning xalq maqollari va iboralaridan ijodiy tarzda foydalanishi uning she’riyati obro‘sini yanada oshirib, buyuk zotlarning e’tirofiga sazovor bo‘lgan edi. U o‘zi “Holoti

[8] O‘sha kitob. – B. 160-161.
[9] Asarlar, 5-tom, II kitob. – B. 346-347.
[10] O‘sha kitob. – B. 260-261.
[11] O‘sha kitob. – B. 398.

Sayyid Hasan Ardasher” asarida qayd etishicha, Ardasher quyidagi baytimni takror va takror o‘qirdi, deydi:

Labing ko‘rgach ilgim tishlaram har dam tahayyurdin,
Ajab holatki, tutmay bolni barmoq yalaydurman[12].

Ushbu baytda “Bol tutgan barmog‘in yalar” maqolining ma’nosi singdirib yuborilgan.

“Er kishiga zeb-u ziynat hikmat va donishdur”, “Bilmaganni so‘rab o‘rgangan olim, orlanib so‘ramagan o‘ziga zolim”, “Chin so‘zni yolg‘onga chulg‘ama, chin ayta olur tilni yolg‘onga bulg‘ama”, “Karam va muruvvat ato va onodurlar, vafo va hayo ikki hamzot farzand” hikmatlari, shuning bilan birga “Haq yo‘lida kim sanga bir harf o‘qitmish ranj ila, Aylamak bo‘lmas ado uning haqin yuz ganj ila” bayti deyarli xalq maqollari sirasiga uyg‘unlashib ketdi.

Navoiy xalq iboralari, olqish, qarg‘ish va turli xalqona ifoda vositalaridan ham nihoyatda mahorat bilan foydalangan. U o‘z she’riyatida bu kabi xalq og‘zaki ijodi namunalarini tabiiy ravishda satrlarga singdirgan, ularni mazmun va shakl jihatidan boyitgan. Quyidagi misollar buning yaqqol isbotidir:

Ko‘zim tortar hamono yor kelgay,
Solur ko‘nglim magar dildor kelgay.

(“G‘aroyib us-sig‘ar”, 672-bet)

Oqu qaro madhida har neki dedim, yoqmas,
Emdi bu mazallatdin oq tovba, qaro tovba[13].
Der ermish: “zarq aylaydur,
Ko‘ring men qayda, ul qayda?”

(“G‘aroyib us-sig‘ar”, 547-bet)

Ey Navoiy, olam ahlidin vafo qilding ta’ma
Men edim sening kibi, men yanglig‘ o‘lg‘ung sen dog‘i[14]
Har qurug‘ shox o‘ldi dasht uzra sabodin hullapo‘sh,

[12]Alisher Navoiy. Asarlar, XIV tom. – Toshkent: Fan, 1990. – B. 79.
[13]Alisher Navoiy. Xazoyin ul-maoniy: Badoye ul-vasat. MAT. 20 jildlik. – Toshkent: Fan, 1990. T. 5. – B. 708.
[14] Alisher Navoiy. Xazoyin ul-maoniy: Navodir ush-shabob. MAT. 20 jildlik. – Toshkent: Fan, 1989. T. 4. – B. 593.

Tinmag‘ur jismim junun vodiysida uryon hanuz.

(“G‘aroyib us-sig‘ar”, 225-bet)

Ko‘zing shamoyilini nargiz ar ko‘ra olmas,

Sanga ne fikr ko‘zi chiqsun, ulki bo‘ldi hasud[15].

Pand eshitmay, ko‘rib oni, yuz baloga uchradim,

Ko‘zlarim chiqsunki, yuz muncha sazo kamdur mango[16].

Xulosa qilib aytganda, bularning barchasi Alisher Navoiy ijodining g‘oyaviy va badiiy salohiyatini yanada yuksaltiradi. Shoirning xalq maqollari, iboralari va og‘zaki ijod namunalaridan mohirlik bilan foydalangani uning asarlariga tabiiylik, hayotiylik va samimiyat baxsh etadi. Bu jihatlar Navoiy tilini yanada nafis, shirador va ta’sirchan holga keltirib, uni xalqning qalbida yashovchi tili bilan uyg‘unlashtiradi. Uning har bir satri xalq ruhiyatiga yaqin, yuraklarga singadigan, teran ma’no va hikmatlar bilan boyitilgan. Natijada, Navoiy ijodi nafaqat adabiy meros, balki milliy o‘zlikning, ma’naviy barkamollikning yorqin timsoliga aylanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Abdurahmonov Abdurashid. Turkiy xalqlar og‘zaki ijodi. (Eng qadimdan islomgacha bo‘lgan davr) – Samarqand: 2006. – 356 b.

2. Alisher Navoiy. Badoye ul-bidoya. MAT. 20 jildlik. – Toshkent: Fan, 1987. T. 1. – 723 b.

3. Alisher Navoiy. Navodir un-nihoya. MAT. 20 jildlik. – Toshkent: Fan, 1987. T. 2. – 620 b.

4. Alisher Navoiy. Xazoyin ul-maoniy: G‘aroyib us-sig‘ar. MAT. 20 jildlik. – Toshkent: Fan, 1988. T. 3. – 616 b.

5. Alisher Navoiy. Xazoyin ul-maoniy: Navodir ush-shabob. MAT. 20 jildlik. – Toshkent: Fan, 1989. T. 4. – 557 b.

6. Alisher Navoiy. Xazoyin ul-maoniy: Badoye ul-vasat. MAT. 20 jildlik. – Toshkent: Fan, 1990. T. 5. – 541 b.

[15] O‘sha kitob. – B. 126.

[16] Alisher navoiy. Xazoyin ul-maoniy: Badoye ul-vasat. MAT. 20 jildlik. – Toshkent: Fan, 1990. T. 5. – B.18.

7. Alisher Navoiy. Xazoyin ul-maoniy: Favoyid ul-kibar. MAT. 20 jildlik. – Toshkent: Fan, 1990. T. 6. – 568 b.

8. Boltayev H. Sharq mumtoz poetikasi manbalari. – Toshkent: O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi, 2008. – 426 b.

9. Shamsiyev P. Ibrohimov S. Navoiy asarlari lug‘ati. – Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi Adabiyot va san’at nashriyoti, 1972. – 782 b.

10. Sharipova L. O‘zbek she’riyatida folklorizm. Monografiya. – Toshkent: Fan, 2011. – 153 b.

11. Avezov S. Alisher Navoiy ijodida folklor an’analari // Ilmiy-nazariy va metodik jurnal. – Buxoro, 2021. 2(78).

